

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№8

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
avgust



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr,
166 sahifa, avgust, 2025-yil.*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Visualdsp++ platformasida raqamli signal protsessorlarini dasturlash texnologiyasi	12
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich	
Tadbirkorlik tushunchasi: falsafiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik tahlil.....	19
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
Xorijiy davlatlar sog'liqni saqlash tizimida investitsiya loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish mexanizmi	26
Karabayev Sanjar Abdusamatovich	
Feasibility study and site optimization for small hydropower plants along the syr darya river in Uzbekistan.....	33
Karimov Mustafu Aminbayevich, Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
Agrar sohada risklarning o'zaro ta'sirchan tarzda namoyon bo'lish xususiyatlari.....	42
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Parrandachilik mahsulotlari omilli tahlil qilishda indeks usulidan foydalanish.	47
Bobomuratov Imomkul Islamovich	
O'zbekiston telekommunikatsiya sohasida raqamlashtirish jarayonlarini samarali boshqarish: "O'zbektelekom" ak misolida.....	56
Islamov Javlon Rasulovich	
Tijorat banklari amaliyotida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish yo'nalishlari.....	59
Rustamov Sunnatillo Rustamovich	
Tadbirkorlikning mamlakat yaimdagi ulushi va uning o'zgarish tamoyillari	66
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Norasmiy bandlikning yashirin iqtisodiyot shakllanishi va dinamikasiga ta'sirining nazariy va amaliy jihatlar	72
Xasanov Jaxongir Jamshidovich, Sharifxo'jayev Shavkat Oqilovich	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlarning amaliy holati va dinamikasi	80
Irgasheva Nigora Akbarovna	
Туристская мобильность стран персидского залива как устойчивый и перспективный источник въездного туризма в Узбекистан	87
Гольшова Елена Вячеславовна; Додиев Феруз	
O'zbekistonda sug'urta bozori holati va o'sish sur'ati	96
Bazarov Zakir Xonqulovich	
Davlat xaridlarida narxning eng yuqori chegarasi: huquqiy mexanizm va amaliy ahamiyati	101
Mamasoliyev Abrorbek Abdug'ani o'g'li	
O'zbekiston respublikasida norasmiy sektor va aholini norasmiy mehnat bilan bandligining legallashtirishini boshqarishni istiqbolli ko'rsatkichlari.....	105
Qoraboev Nuriddin Pardaboy o'g'li	
Разработка инновационных инструментов и механизмов стратегического управления проектами	110
Мансурова Севара Мансуровна	
Sug'urta kompaniyalarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning metodologik asoslari: nazariy va amaliy jihatlar	114
Haqberdiyev Bekzod O'ktamovich	
Учёт и аудит обязательств на предприятиях: анализ зарубежного опыта и практики	120
Халыкназарова Гулназ Жалгасбай кызы	
Theoretical Basis for Ensuring a Cotton Layer on a Conveyor Belt	126
G'.R.Rakhmatov	



Korxonalarning moliyaviy barqarorligini boshqarish	132
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li	
Targetlangan iqtisodiy siyosat orqali kambag'allikka qarshi kurash.....	138
Baratov J.N.	
Jismoniy shaxslarning daromadlariga deklaratsiya asosida soliq solish mexanzmini takomillashtirish	144
Ibragimov Zafar Ismailovich	
Bekobod sement zavodida ishlab chiqarish jarayonlarida og'ir mehnat omillarini avtomatlashtirish orqali xavfni kamaytirish	152
Ishchanov Atabay Reyimberdiyevich	
Tadbirkorlikning mamlakat yaimdagi ulushi va uning o'zgarish tamoyillari	159
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	



TADBIRKORLIKNING MAMLAKAT YAIMDAGI ULUSHI VA UNING O'ZGARISH TAMOYILLARI

Ibragimova Gulchexra Toxirovna

Fan va texnologiyalar universiteti

“ Iqtisodiyot ” kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining yalpi ichki mahsulot (YalM) tarkibidagi ulushi, uning o'zgarish tendensiyalari va mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda 2020–2024 yillardagi statistik ma'lumotlar asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning asosiy tarmoqlardagi ulushi, yangi tashkil etilgan korxonalar soni, soliq imtiyozlari va davlat qo'llab-quvvatlash choralari samaradorligi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, YalM ulushi, kichik biznes, soliq imtiyozlari, davlat qo'llab-quvvatlash, yoshlar tadbirkorligi, statistik tahlil, iqtisodiy islohotlar.

Abstract: This article analyzes the share of entrepreneurial activity in Uzbekistan's gross domestic product (GDP), its trends, and its impact on the country's economy. The study examined the share of small business and private entrepreneurship in key sectors, the number of newly created enterprises, tax benefits, and the effectiveness of state support measures based on statistical data for 2020-2024.

Keywords: entrepreneurship, share of GDP, small business, tax benefits, state support, youth entrepreneurship, statistical analysis, economic reforms.

Аннотация: В статье анализируется доля предпринимательской деятельности в валовом внутреннем продукте (ВВП) Узбекистана, тенденции его изменения и влияние на экономику страны. В исследовании на основе статистических данных за 2020-2024 годы рассмотрена доля малого бизнеса и частного предпринимательства в основных отраслях, количество вновь созданных предприятий, эффективность налоговых льгот и мер государственной поддержки.

Ключевые слова: предпринимательство, доля ВВП, малый бизнес, налоговые льготы, государственная поддержка, молодежное предпринимательство, статистический анализ, экономические реформы

KIRISH

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va iqtisodiy faollikni ta'minlashda tadbirkorlik faoliyati muhim ahamiyatga egadir. Vaholanki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, - "Mamlakatimizda xususiy mulkchilik va tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay shart-sharoitlar yaratildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 56,5 foizga yetdi. Bu sohada ish bilan band aholining 78 foizi mehnat qilmoqda va ular mamlakatimizning gullab-yashnashi uchun munosib hissa qo'shmoqda"¹. Shu nuqtayi nazardan ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KBXT) ni shakllantirish hamda rivojlantirishga ustuvorlik berilishi amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda KBXTni faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishning zarur me'yoriy-qonunchilik, tashkiliy va iqtisodiy asoslari va ularni samarali amalga oshirish mexanizmi bosqichma-bosqich yaratilib, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni bozor tamoyillariga mos tizimi vujudga keltirildi.

Mustaqillik yillarida tadbirkorlik o'zining jamiyatning barcha jabhalardagi mavjud muammolarni bartaraf etishning, boshqa hech bir soha va yo'nalish o'rnini bosolmaydigan katta ahamiyati bilan alohida o'ringa ega ekanligini tasdiqladi. Xususan, iqtisodiy faollikka erishish va uni barqarorligini ta'minlashda sezilarli darajada hissa qo'shmoqda.

Avvalambor, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida muhim omillardan hisoblangan iqtisodiy faollikni ta'minlash uchun yaratilgan makroiqtisodiy muhit bilan bir qatorda uni amalga oshirishdagi asosiy xo'jalik yuritish subyektlaridan biri – tadbirkorlarni shakllanishi va rivojlanishi tendensiyasini aniqlash nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim rol o'ynaydi. Chunki ushbu bozor iqtisodiyoti subyektlari qanchalik rivojlansa, ularning soni ko'payib, ishlab chiqarayotgan mahsulotlari va ko'rsatayotgan xizmatlari miqdori hamda sifati oshib borsa, mamlakatimizning iqtisodiy qudrati tobora oshib, xalq farovonligi yuksaladi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2017. - 592 b.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatimizda iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda ishbilarmonlik muhitini yaratish, kichik biznes korxonalarining innovatsion rivojlanishini ta'minlovchi infratuzilma va uning muhim tizimosti elementlari – texnopark, biznes-inkubator, axborot va venchur moliyalashtirish fondlarini rivojlantirish masalalari S.S.G'ulomov, Yo.Ab-dullaev, F.Karimov, A.O'lmasov, A.Vaxobov, Sh.Shodmonov, R.Alimov, T.Jo'raev, B.R.Sanakulova, D.Tojiboeva, A.A.Qulmatov kabi iqtisodchi olimlar ilmiy izlanishlarida atroflicha tadqiq etilgan².

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik amalga oshirilgan islohotlar doirasida bosqichma-bosqich tarzda shakllandi. Har bir bosqichda mavjud holatlardan kelib chiqqan holda alohida maqsad va vazifalar belgilanib, iqtisodiy faollikni ta'minlashga qaratilgan yangi chora-tadbirlar va mexanizmlar yaratildi. Bunda asosiy e'tibor tadbirkorlikni Yalpi ichki mahsulot (YalMI)dagi ulushini oshirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy va ijtimoiy muammolarni hal etish, eksport faoliyatini rivojlantirish, ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va boshqa qator vazifalarni yechimiga qaratildi.

Makroiqtisodiy barqarorlikga erishishi va rivojlanish strategiyasi nuqtayi nazaridan o'tkazilayotgan institutsional - tarkibiy o'zgarishlar, eng avvalo mulkchilikning davlat sektorida yoki xususiy sektorda bo'lishligidan kat'iy nazar ma'lum bir tavakkalchilik asosidagi tadbirkorlik faoliyatini bozor munosabatlarini xarakatga keltirishning asosiy sharti sifatida talqin etmoqda. Ko'rilayotgan choralarda natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari tarkibidagi ulushi ortdi, yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni ko'paydi, ishlab chiqarilayotgan maxsulot turlaridagi salmog'i ko'paydi, asosiy kapitalga kiritgan investitsiyalari ortish tendensiyasi ko'rinmoqda. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot asosiy tarmoqlaridagi ulushini quyidagi jadval orqali baholash mumkin (1- jadval).

Jadval ma'lumotlari asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, tarmoq yalpi ishlab chiqarish hajmida kichik biznes korxonalarining ulushida tabiiy ravishda tarkib topuvchi chegara mavjud. Ya'ni, agar tarmoq ishlab chiqarishida kichik biznes korxonalari uchun ilgari mavjud bo'lmagan ruxsatni birdaniga ochib yuborilsa, u holda mazkur soha jadallik bilan o'sib boradi.

1-jadval : 2020-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot asosiy tarmoqlaridagi ulushi³

Tarmoq	2020	2021	2022	2023	2024
Sanoat	45,3	41,2	34,7	34,9	36,6
Qishloq xo'jaligi	98,6	98,5	98,3	98,3	97,4
Qurilish	66,9	64,8	73,2	75,4	72
Savdo	89,6	88,4	86,3	84,3	82,8

Ishsizlarni, ayniqsa yoshlarni ish bilan ta'minlashda ularning iqtisodiy mustaqillikka erishishlari va hayotda o'z o'rinlarini topib ketishlarida kichik biznes va tadbirkorlik sohasining rivojlanishi eng asosiy omil va manba bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish, uning qonuniy-me'yoriy asolarini mustahkamlashga qaratilgan iqtisodiy islohotlar dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

2-jadval: 2020-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasida tarmoqlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, birlik)⁴

Tarmoqlar	2020	2021	2022	2023	2024
Tarmoqlar bo'yicha jami	26896	38167	48922	92874	93200
Sanoat	5841	10182	11262	19496	18596
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	2351	3337	5144	7469	14969
Qurilish	2850	3788	6360	8730	6009

2 4 S.S.G'ulomov. Tadbirkorlik va kichik biznes. – Toshkent: Sharq, 2002. – 288 b., Yo.Ab-dullaev, F.Karimov. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. –T.: Mehnat, 2000. 8-9, 17-18 b.; 2008. 290 bet., A.O'lmasov, A.Vaxobov. Iqtisodiyot nazariyasi. –T.: Sharq, 2006. 482 bet., Sh.Shodmonov, R.Alimov, T.Jo'raev. Iqtisodiyot nazariyasi. –T.: Moliya, 2002. 183-486 b., B.R.Sanakulova. Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish. O'quv qo'llanma.-Toshkent. Noshir, 2012. 236 b., D.Tojiboeva. Iqtisodiyot nazariyasi. –Toshkent: O'qituvchi, 2002.–177 b., A.A. Qulmatov. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi. – Toshkent. 2004. –123 b.

3 www.stat.uz- O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy axborot sayti ma'lumotlari

4 www.stat.uz- O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy axborot sayti ma'lumotlari



Transport va aloqa	2099	2831	3335	-	2397
Boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari	-				
Savdo va umumiy ovqatlanish	2403	11244	15604	-	35213
Maishiy xizmat ko'rsatishning noishlab chiqarish turlari	-	-	-	-	-
Sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya, sport va ijtimoiy ta'minot	486	858	1154	1269	1450
Ta'lim, madaniyat, fan va ilmiy xizmat ko'rsatish	-	-	-	-	-
Boshqa noishlab chiqarish tarmoqlari	3730	4120	5621	-	5637

Kam sarmoya talab qiladigan, tez modernizatsiya qilinadigan va bozor konyukturasining o'zgaruvchan talablariga yaxshi moslasha oladigan biznes yuritish zamon talabiga aylandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Kichik biznes bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldiradigan, iqtisodiyotni tarkibiy negizini belgilab beradigan eng muhim sektor hisoblanadi.

Mamlakatimizda 2019-2023-yillarda tarmoqlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni o'zgarishining tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur ko'rsatkich uchun 2021-2022-yillar oralig'ida muayyan darajadagi beqarorlik xos bo'lib, faqat 2020 yildan boshlab izchil va barqaror o'sishga erishilgan. 2021-yilda 92,9 mingtadan ortiq kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 89,8 foiz ko'p demakdir.

Kichik biznes korxonalarini faoliyatining tarmoq bo'yicha ixtisoslashuv jarayonlarini tadqiq etishda tarmoqlar bo'yicha yangidan tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sonining tahlili muhim o'rin tutadi (2-jadval).

Kichik biznes sohasidagi ishlab chiqarishning tarmoqlar bo'yicha ixtisosa-shuvini bir necha jihatlar bo'yicha baholash mumkin:

- 1) tarmoq ishlab chiqarishida band bo'lgan xodimlar soni;
- 2) muayyan tarmoqning yalpi ishlab chiqarish hajmidagi ulushi;
- 3) tarmoqda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni;
- 4) tarmoqda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi.

Shu nuqtayi nazardan, bugungi kunda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish, xususan, yoshlarning biznes g'oyalarini amalga oshirishga har tomonlama ko'maklashish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yillar davomidagi iqtisodiyotning asosiy turlaridagi ulushini quyidagi jadval orqali ko'rish mumkin

(3-jadval).

3-jadval: 2019-2023 yillarda O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotning asosiy turlaridagi ulushi, foizda⁵

Hududlar	2020	2021	2022	2023	2024
Yalpi ichki mahsulot	64,9	63,4	60,4	54,2	53,9
Shu jumladan					
Sanoat	45,3	41,2	34,7	34,9	27,5
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	98,6	98,5	98,3	98,3	97
Investitsiya	40,9	38,1	38,0	47,0	49,7
Qurilish	66,9	64,8	73,2	75,4	72,4
Savdo	89,6	88,4	86,3	84,3	82,2
Jami xizmatlar	63,2	58,3	56,0	52,1	51,5
Avtomobil transporti:					
Yuk tashish	53,7	54,2	55,5	54,4	52,4
Yo'lovchi tashish	88,8	90,1	89,6	90,4	93,9
Bandlik	78,2	78,0	76,3	76,2	
Eksport	26,0	22,0	27,2	27,0	20,5
Import	46,3	53,6	56,2	61,6	51,8

Hududlarda oilalarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilishga, ularning barqaror va qo'shimcha daromad manbaiga ega bo'lishiga, milliy hunarmandchilik yanada rivojlanishiga, xotin-qizlarning tadbirkorlik tashab-

buslari amalga oshirilishiga, yosh tadbirkorlarning istiqbolli g'oyalari va loyihalari ro'yobga chiqishiga hamda shu asosda aholining bandligi ta'minlanishiga zamin yaratilmoqda. Aholining mehnat orqali daromad topishga bo'lgan qiziqishini keskin oshirish, ayniqsa muhtoj oilalarning hunarmandchilik, kasanachilik va boshqa tadbirkorlik faoliyatini, shuningdek, hududlarda foydalanilmayotgan binolarda ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni, aholi tomorqalari va bo'sh ekin maydonlaridan unumli foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish bilan bog'liq loyihalarni imtiyozli shartlarda moliyalashtirishni tizimli ravishda davom ettirishni taqozo etmoqda.

Respublika hududlarida aholining daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug'ullanishiga, oilaviy tadbirkorlik rivojlanishiga har tomonlama ko'maklashish va mazkur yo'nalishdagi ishlarni tizimli tashkil etish ishlari amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning mustahkam qonunchilik va huquqiy asosi shakllangan bo'lib, u muntazam ravishda takomillashtirib borilmoqda. Bu soha uchun soliq va moliyaviy munosabatlarda katta imtiyozlar belgilangan, jumladan:

1. 60 mingdan ortiq subyektlar mol-mulk va yer solig'idan ozod etildi;
2. 329 mingta kichik biznes subyekti uchun ijtimoiy soliq stavkasi 12 foizdan 1 foizga kamaytirildi;
3. 239 mingta yakka tartibdagi tadbirkorga eng kam ijtimoiy soliq miqdori 50 foizgacha kamaytirildi;
4. 4 mingdan ortiq eksport qiluvchi debitorlik qarzlari mavjud korxonalarga jarimalarni qo'llash to'xtatildi;
5. 105 mingta tadbirkorlarning 21,5 trln. so'mlik kreditlarini qaytarish muddati uzaytirib berildi;
6. Tadbirkorlikni rivojlantirish jamg'armasidan 25 mingdan ortiq tadbirkorga 8,4 trln. so'mlik moliyaviy ko'mak ko'rsatildi;
7. Turizm bilan shug'ullanuvchi 3,2 mingta yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun daromad solig'ini hisoblash to'xtatildi;
8. Mehr-shafqat va salomatlik" fondi, "Mahalla" xayriya jamoat fondi, "Sahovat va ko'mak" fondiga beg'araz yo'naltirilgan homiylik mablag'lari foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aylanmadan olinadigan soliq va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlarning amal qilishi 2020 yil 31 dekabrga qadar uzaytirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni tadbirkorlik faoliyati rivojlanishi va biznesning qonuniy manfaatlari muhofazasini nazarda tutadi. Farmonda tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatiga ko'maklashish, davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik, tadbirkorlik subyektlarini o'qitish va kadrlar tayyorlash, tashqi iqtisodiy faoliyat va investitsiyalarni jalb qilish kabi aniq va eng muhim vazifalari belgilab berilgan.

Tadbirkorlikning rivojlanishi ko'p omillarga, birinchi navbatda tadbirkorning bilimi, tajribasi va ishbilarmonligiga bog'liq. Bugungi kunning tadbirkori menejment, rahbarlik usullari asoslari, iqtisodiy masalalar bo'yicha biznesni rejalashtirish, xo'jalik faoliyatini tahlil etish, chiqimlarni kamaytirib, foydani ko'paytirish, shuningdek, huquq va psixologiya sohasi kabi bilimlarni egallashi zarur. Chunki zamonaviy ishlab chiqarish juda murakkab, texnika vositalari va texnologiyalar muttasil takomillashib bormoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi tadbirkorlik milliy iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishda, uni barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishni ta'minlashda, texnik hamda texnologik qayta jihozlash, yangi turdagi mahsulotlarni o'zlashtirishda o'ta muhim rol o'ynashidan, ichki bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldirishning asosiy manbayi ekanligidan yaqqol dalolat beradi.

O'zbekiston uchun xususiy tadbirkorlikning mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlash yoki o'zini o'zi band qilish, uning daromadini oshirishdagi ahamiyati, ayniqsa, muhimdir. Yoshlar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda ham katta kuch.

Ularning safi yanada kengayishi uchun davlat tomonidan zarur shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Faqatgina "Yoshlar – kelajagimiz" dasturi doirasida yosh avlod vakillarining 8 mingga yaqin biznes loyihasiga 1 trillion 630 milliard so'mdan ziyod imtiyozli kredit mablag'lari ajratildi, natijada 40 mingga yaqin yangi ish o'rni tashkil etildi. Navqiron avlod tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashda respublikamizda tashkil etilayotgan "Yosh tadbirkorlar" kovorking-markazlari va "Yoshlar mehnat guzarlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini egallagan yoshlar mustaqil faoliyatini boshlashmoqda. Bundan tashqari yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida Prezident qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020 yil 13 oktabrdagi PQ-4862-son qarorida belgilangan topshiriqlar ijrosi aholi, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlar hamda biznes sohasi vakillarini qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari bo'lib xizmat qiladi. Jumladan qarorda aholini, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb qilish, mikromoliyalash tizimini takomillashtirish, tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini joriy etish hamda yagona davlat tashkiloti tomonidan muvofiqlashtirib borish nazarda tutilgan. Endilikda "Har bir tadbirkor – yoshlarga madadkor" tamoyili asosida har 1 nafar tadbirkorga 1 nafardan



ishsiz yoshlar birlashtiriladi. Tijorat banklarining hududlarda faoliyat boshlagan "Loyihalar fabrika"lari yoshlari-mizning ilg'or g'oyalari asosida loyihaviy taklif va biznes rejalarini tayyorlab beradi.

Yoshlar loyihalarini moliyalashtirish uchun Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi qoshida alohida jamg'arma tashkil etilib, ushbu jamg'armaga 100 million dollar mablag' ajratiladi. Ushbu jamg'arma yoshlarning loyihalariga qulay shartlarda va past foizlarda kredit beradi. Bu 2024 yilning o'zida yilda kamida 500 ming yoshga ish joyi yaratish imkonini beradi. Shuningdek, respublikamiz hududlarda "ustoz-shogird" an'anasi yanada kuchaytirilib, ana shu ezgu ishga jalb etiladigan hunarmand ustalarni Bandlikka ko'maklashish jamg'armasidan moddiy rag'batlantirish tizimi joriy etiladi. Yurtimizda erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini tashkil etish tajribasidan foydalangan holda barcha shahar va tumanlarida "Yoshlar kichik sanoat zonalarini" tashkil etiladi. Ushbu sanoat zonalarida yoshlar loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashish uchun zarur bo'ladigan barcha infratuzilma obyektlari joylashtiriladi. Tijorat banklarining hududlarda faoliyat boshlagan "Loyihalar fabrika"lari yoshlarimizning ilg'or g'oyalari asosida loyihaviy taklif va biznes rejalarini tayyorlab beradi. Yoshlar loyihalarini moliyalashtirish uchun Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi qoshida alohida jamg'arma tashkil etilib, ushbu jamg'armaga 100 million dollar mablag' ajratiladi. Ushbu jamg'arma yoshlarning loyihalariga qulay shartlarda va past foizlarda kredit beradi.

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, fermer va dehqon xo'jalik-larini qo'shmaganda tadbirkorlik subyektlari soni qariyb 408 mingtaga yetgan. Shundan 90 ming 161 tasi xususiy korxonadir. E'tiborlisi, xususiy korxonalar soni bo'yicha poytaxtdan keyingi o'rinlarni mehnat resurslari nisbatan yuqori bo'lgan Farg'ona, (11 061 ta), Qashqadaryo (9 200 ta), Namangan (7 188 ta) viloyatlari band etdi.5 Bu esa ushbu hududlarda yoshlar bandligini ta'minlashda jiddiy siljishlar bo'lishiga katta umid uyg'otadi. Bularga qo'shimcha ravishda aholini tadbirkorlikka jalb etish uchun quyidagi vazifalar belgilab berilgan:

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratiladigan kreditlar (70+30 konsepsiya);

Dasturlar doirasida 2021-2022 yillarda ajratilgan imtiyozli kreditlardan samarali foydalangan oilalarning tadbirkorligini rivojlantirish (306 mingta subyekt);

Yoshlar daftari", "ayollar daftari"ga kiritilgan va mehnat migrantlarini tadbirkorlik asoslariga o'qitish va mikrokreditlash orqali biznesni rivojlantirish;

Yo'l bo'yi infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha xizmatlar sohasida tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirish va loyihalarni dasturlar doirasida moliyalashtirish;

Tuman va shaharlarning "o'sish nuqtalari" asosida alohida drayver loyihalarni amalga oshirish va bu borada biznesni qo'llab-quvvatlash;

Bo'sh yer uchastkalari va davlat mulki obyektlarini auksion savdolariga chiqarish orqali tadbirkorlikka taklif qilish.

Shuningdek, 2024 yildan davlat korxonalari transformatsiyasi tezlashtiriladi. Ularga xalqaro bozorga chiqib davlat kafolatisiz mablag' jalb etish imkoniga ega bo'ladi. Mamlakatda yuqoridagi kabi iqtisodiy loyihalarni amalga oshirilishi aholi, ayniqsa yoshlar uchun yangi-yangi ish o'rinlari yaratilishi va aholi turmush farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 30.12.2020. <https://review.uz/oz/post/poslanie-prezidenta-uzbekistana-shavkatamirziyoyeva-oliy-majlisu>
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2017.- 592 b.
3. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma.-T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. - 170 bet.
4. Artiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.- T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2014.- 220 bet.
5. Мухаммад Юнус, Алан Жоли. Создавая мир без бедности: социальный бизнес и будущее капитализма. Пер. с англ. - М.: Алпина Паблишерз, 2010. - 307 с.
6. www.stat.uz- O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy axborot sayti ma'lumotlari

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100